

TARJIMADA LISONIY BIRLIKLARNING QO'LLANILISHI

Babakulov Yusuf Ismoilovich
Samarqand Davlat Chet tillar Instituti
2 kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarjimada lisoniy birliklarning qo'llanilishi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: *Tasnif, so'z yasovchi va grammatik qo'shimchalar, harakat fe'llari, nutq fe'llari, tafakkur fe'llari, yurish fe'llari, fonemalar unli va undoshlarga, leksemalar mustaqil va nomustaqil leksemalarga, qo'shimchalar.*

Tasnif (arabcha «sarlash», «tartibga solish») narsa va predmetlarni aniq va doimiy o'ringa ega bo'lgan guruh (sinf)larga bo'lishdir. Agar tasnif ilmiy asosga ega bo'lsa, u uzoq davr mobaynida amal qiladi. Masalan, ximiyaviy elementlar tasnifi bugungi kunda ular soni 200 dan oshib ketayotgan bo'lsa-da, o'zgarasdan amal qilmoqda.

Tasnif oddiy bo'lishdan barqaror tabiatliligi bilan ajralib turadi. To'g'ri, tasniflashda ham oddiy bo'lishda amal qiladigan barcha tamoyillar asos bo'lib xizmat qiladi. Ya'ni tasnifda ham bo'lishdagi kabi:

- 1) tasniflangan bo'laklar hajmi tasniflanayotgan butunlik hajmiga teng bo'lishi;
- 2) tasnif bir asosda amalga oshirilishi;
- 3) tasnif (tasniflangan) guruhlar bir-birini inkor qilishi;
- 4) tasnif uzluksiz bo'lishi, ya'ni unda «sakrash» bo'lmasligi lozim.

Bu qoidalarni qisqacha sharhlaymiz.

1. Tasniflangan guruhlar hajman tasniflanuvchi butunlikka mos kelishi. Masalan, fonemalar unli va undoshlarga, leksemalar mustaqil va nomustaqil leksemalarga, qo'shimchalar so'z yasovchi va grammatik qo'shimchalarga ajraladi. Agar tasniflangan guruhlar soni ancha ko'p bo'lsa «va boshqalar», va «va hokazo» tarzida sanashni tugatish xam mumkin. Masalan, fe'llarning mavzuiy guruhlari harakat fe'llari, nutq fe'llari, tafakkur fe'llari, yurish fe'llari va xokazo kabi.

Bu qoidaning buzilishi quyidagi xatolarga olib keladi:

a) noto'liq tasnifda turning barcha jinslari to'liq sanalmaydi. Masalan, «So'z yasovchilar, ot yasovchilar va fe'l yasovchilarga bo'linadi» kabi. Chunki so'z yasovchilar aytilganlardangina iborat emas.

b) ortiqcha a'zoli tasniflar tasniflangan guruhlar hajman tasniflanuvchi butunlikdan katta bo'ladi. Masalan, «unlilar lablangan, lablanmagan va bo'g'iz turlariga ega».

2. Tasnif bir asosda amalga oshirilishi lozimligi. Tasniflanuvchi butunlikni guruhlarga bo'lishi bir belgi, asos, mezon asosidagina amalga oshirilmog'i lozim. Masalan, so'z turkumlari uch belgi-morfologik, semantik va sintaktik belgilar asosida tasniflanishi mumkin. Lekin har bir tasnifda ularning birigagina tayaniladi.

3. Tasnif a'zolari (guruhlari) bir-birini inkor etishi lozim. Masalan: undoshlar til oldi, til o'rta, til orqa, bo'g'iz, jarangli, jarangsiz turlardan iborat deyilgan tasnifda a'zolarining ayrimlari boshqalarini inkor eta olmaydi. Ya'ni jarangli undoshlar til oldi undoshlari bilan zidlana olmaydi, til oldi va til o'rta undoshlari bir-birini inkor etish xossasiga ega..

4. Tasnifda sakrash bo'lmasligi lozim. Agar «kesimlar sodda kesim, murakkab fe'l kesim, murakkab ot kesimga bo'linadi» degan xatoga yo'l qo'ygan bo'lamiz. Chunki dastlab kesimni

sodda va murakkabga, so'ngra ularni fe'l va ot kesim turlariga bo'lish to'g'ri va izchil tasnifni beradi.

Tasnifning bo'lishdan farqi shundaki, bo'lishda a'zolar guruhlanishi shart emas. Masalan, lablanmagan unlilar i,e,a dir deyish tasnif emas, balki bo'lishdir. Tasnif xarakteriga ega bo'lish uchun i yoki a guruh (sinf) bo'lib, o'z navbatida, yana bo'linib ketishi lozim edi. Unlilarni lablangan va lablanmagan unlilarga bo'lish tasnif bo'lib, lablanmagan yoki lablangan unlilarni bo'lish oddiy bo'lish bo'lsa-da, tasnif maqomida emas.

Tasnif dixotomik, politomik yoki dixopolitomik bo'lishi mumkin.

Dixotomik tasnifda birliklar ikki guruhga ajratiladi: «fonemalar unli va undoshlarga ajraladi» kabi. Politologik tasnifda guruhlar soni ikkidan ortiq bo'ladi: «Grammatik qo'shimchalar lug'aviy shakl hosil qiluvchilar, sintaktik shakl hosil qiluvchilar va lug'aviy sintaktik shakl hosil qiluvchilarga bo'linadi», yoki fe'llar nutq fe'llari, ruhiy-holat fe'llari va h.

Dixopolitomik tasnifda tasniflanuvchi butunlik dastlabki bosqichda ikkiga, keyingi bosqichda ikkidan ortiq sinfga ajraladi.

Tasnifda tasnif asosini tanlash muhimdir. Chunki biror narsalar tizimini turli asoslarda tasnif qilish turli natijalarni beradi. Masalan, undosh fonemalarni ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra jarangli va jarangsizlarga, hosil bo'lish o'rniga ko'ra lab, til, bo'g'iz undoshlariga tasniflash mumkin¹.

Lisoniy tasnif tasniflanayotgan birliklarning ichki, zotiy belgilariga ko'ra yoki muhim bo'lmagan zohiriy xossalriga asoslangan bo'lishi mumkin. Shu boisdan tabiiy yoki yordamchi tasniflar farqlanadi. Tabiiy tasnifda lisoniy birliklarning ichki, barqaror belgilariga tayaniladi. Biz yuqorida tabiiy tasnifga misollar keltirdik.

Yordamchi tasnifda birliklarning ontologik bo'lmagan xossalarni bildiruvchi belgilariga tayaniladi. Masalan, «so'zlarning bo'g'in sonlariga ko'ra tasnifi bir bo'g'inli, ikki bo'g'inli va ko'p bo'g'inli so'zlar», «unlilarning tilni gorizontal holatiga ko'ra tasnifi» va h.

II. Inson tili asosini tovush tashkil qiladi: tilda bor hodisalar tovushlarda reallashadi. Tovush til birligi sifatida boshqa til birliklari uchun qurilish birligi bo'lib xizmat qiladi. Shunga ko'ra til tovushi til birliklarining birlamchi ifoda jihati deyiladi.

Til tovushi lisoniy birlik sifatida miyadagi til xotirasi markazida ma'lum bir ramz sifatida aks etadi. Ana shu ramzda til tovushiga xos belgi-xususiyatlar haqida axborot bo'ladi. Masalan, u tovushi haqida «ovozdan iborat», «og'iz bo'shlig'i tor holatda», «tovush hosil bo'lish oralig'i til sathining orqa qismida», «lablar aktiv qatnashadi» kabi axborot bor. Inson faoliyatini, shu jumladan til faoliyatini ham boshqaruvchi miya markazidan u tovushini aytish haqida «ko'rsatma» (impuls) berilsa, shu tovushning ramzida mujassamlashgan axborotga binoan tovush hosil qilish a'zolari harakatga kelib, ko'rsatmaga binoan ma'lum holat egallaydi va o'pkadan chiqayotgan havo ma'lum nutq tovushi sifatida, nutqiy birlik sifatida namoyon bo'ladi.

Til xotirasida shu tildagi barcha til tovushlarining ramzi bo'ladi, bu ramzlar shu tildagi tovushlarning artikulyasion bazasini (nutq a'zolarini tovush hosil qilishga jalb etish ko'nikmalari yig'indisini) tashkil qiladi. Boshqa tilga mansub til birligi sifatida uchraydigan begona tovushning noto'g'ri talaffuz qilinishi bunday tovush uchun til xotirasi markazida maxsus ramzning yo'qligi bilan izohlanadi: bunday tovush uchun til xotirasida ramz paydo bo'lsa, shundan keyingina bu tovushni to'g'ri talaffuz qilishga erishiladi. Masalan, o'zbek tiliga turkiy til sifatida sirg'aluvchi j tovushi xos bo'lmagan, eroniy til egalari bilan uzoq muddat birga yashash, doimiy muloqatda bo'lish natijasida bu tovush ajdar, mujda, gijda kabi til birliklari tarkibida o'zbek tiliga qabul qilingan, natijada bu tovush uchun til xotirasi markazida alohida ramz paydo bo'lgan.

III. Til tovushlariga vazifasiga ko'ra baho berish bilan fonema nazariyasi yuzaga keldi. Fonema ham til tovushi, lekin har qanday tovush fonemaga teng bo'lavermaydi. Til tovushlari tizimi shu tildagi fonemalar tuzumidan ko'p bo'ladi deyiladi: har bir til tovushi o'z belgi-xususiyatlarini qisman o'zgartirib, bir necha ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, uyqu- birligi oxiridagi unli an'anaga binoan u harfi bilan yoziladi, amaliyotda esa bu yerda u tovushidan ko'ra i tovushini aytish ko'p uchraydi. Demak, uyqu- birligi oxiridagi u tovushi i tovushi tarzida ham talaffuz qilinadi. Bu yerda ikki xil tovush talaffuz qilinishiga qaramay til birligi aynan saqlanadi, boshqa til birligi bo'lib qolmaydi. Ko'rinadiki, bu til birligining til xotirasidagi ramzi tarkibida uning oxiridagi unli ikki xil: u va i tovushlari tarzida talaffuz qilinishi haqida axborot bor.

O'zbek tilida u tovushi va i tovushi ayrim-ayrim birlikka, til birliklarining ifoda jihati bo'lib xizmat qiluvchi ayrim-ayrim fonemaga teng (bur-, bir- birliklarida bo'lgani kabi); shu bilan birga uyqu-, uyqi- birligida bu ikki tovush ayni bir fonemaning ikki ko'rinishi sifatida namoyon bo'layotgani ham shubhasiz.

Bir fonemaning ko'rinishlari sifatida namoyon bo'luvchi bunday ikki va undan ortiq tovush shu fonemaning allofonemalari deyiladi (Adabiyotlarda allofon termini ishlatiladi).¹ Til xotirasidagi ramzda fonemaning qanday allofonemaga egaligi haqida ham axborot bo'ladi.

Agar fonema allofonemalarga ega bo'lmasa, nutqda fonemaning o'zi, agar fonema allofonemalarga ega bo'lsa, shu allofonemalardan biri reallashadi. Fonemaning nutqda reallashgan holati fon deb yuritiladi. Fonema, uning allofonemalari lisoniy birlik, fon esa nutqiy birlik deyiladi.

Fonema, til tovushi kabi, bir jihatli-ifoda jihatining o'zigagina teng bo'lib, til birligining ifoda jihati uchun qurilish ashyosi bo'lib xizmat qiladi. Demak, fonema - til birligining ifoda jihati bo'lib keluvchi va shu vazifasi bilan til birliklarini o'zaro farqlashga xizmat qiluvchi til tovushi yoki til tovushlari zanjiri.

Masalan, hozirgi o'zbek tilida d tovushi bilan ifodalanadigan fonema (dala- birligidagi kabi) va t tovushi bilan ifodalanadigan fonema (tun- birligidagi kabi) mavjud. Shu bilan birga t tovushi d tovushining pozision ko'rinishi sifatida namoyon bo'lishi ham mavjud: obod - obot (lekin obodonchilik) kabi. Bu misolda d fonemasining allofonemalari deb d va t tovushlarini ko'rsatishi kerak. Demak, d fonemasining ma'lum pozisiyada (bu yerda - til birligining oxirida) jaranglilik xususiyatini yo'qotib, jarangsiz t tovushi bilan ifodalanishi mumkinligi haqidagi axborot d fonemasining til xotirasidagi ramzida bor.

Asli fonema nazariyasi til tovushlari doim o'z aynanligini saqlamasligi, turli-tuman o'zgarishlarga uchrashi, lekin har qanday tovush o'zgarishi til birligining o'zgarishiga olib kelavermasligini ta'kidlash uchun yaratildi.

IV. Til tovushi va fonemani alohida-alohida birliklar deb qarash to'g'rimi yoki bularni ayni bir birlik deb qarash kerakmi?

Adabiyotlarda dastlab tovush, nutq tovushi ta'kidlanib, shuning yonida «yoki fonema», «aniqrog'i-fonema» kabi qo'shimcha izohlar berilgan bo'lsa, keyinchalik til birliklari qatorida faqat fonema ko'rsatilib, til tovushi bu qatordan tushirib qoldiriladigan bo'ldi.

To'g'ri, til tovushi ham, fonema ham bir tomonlama birlik: til birliklarining ifoda jihati bo'lib xizmat qiladi. Bunday vazifa fonemaga olib berilganiga qaramay, til tovushi til qurilishining birlamchi birligi ekani yo'qqa chiqmaydi. Bundan tashqari, til tovushi asosida voqye bo'ladigan bo'g'inni hisobga olsak, til tovushini alohida til birligi deb qarash asosli ekani ko'rinadi (Supersegment deb baholanadigan urg'u hodisasi ham til tovushi asosida voqye bo'ladi).

Til tovushi va fonema o'zaro yana bir jihati bilan farqlanadi: til tovushi doim segment birlik sifatida namoyon bo'lsa, fonema ayrim hollarda nol ko'rsatkichli bo'lishi mumkin. Masalan, singil- birligining ifoda jihati besh fonemadan iborat; xuddi shu birlikki egalik qo'shimchasi qo'shilsa, ikkinchi bo'g'indagi i tovushi talaffuz qilinmaydi; shunday holatlarda fonema yo'qolmaydi, balki nol ko'rsatkichli holatga o'tadi deyiladi; bunday birlikning fonemalar tarkibi s-i-ng-Æ-l shaklida yozib ko'rsatiladi; shunga ko'ra bu yerda i fonemasining nol ko'rsatkichli allofonemasi haqida gapiriladi.

Til birligi sifatida leksemaning ifoda jihati bir necha ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin. Yuqorida keltirilgan uyqu- - uyqi-, obod- - obot-, singil- - singl- misollarida u - i, d - t, i allofonemalari asli ushbu leksemalar tarkibida voqye bo'ladi, demak, allofonemalar shu tildagi tovush o'zgarishlari qoidalariga binoan ma'lum leksemalarga bog'liq holda yuzaga keladi.

Leksema tub bo'lsagina, uning ifoda jihati bo'lib fonema xizmat qiladi. Agar leksema hosila birlik bo'lsa, ifoda jihati sifatida uni tarkib toptiruvchi til birliklari xizmat qiladi. Ana shu tarkib toptiruvchilar tub bo'lsa, ularning ifoda jihati bo'lib fonema xizmat qiladi. Masalan, qo'lla- leksemasi hosila (yasama) birlik bo'lib, qo'l- va -la til birliklaridan tarkib topgan, bu birliklarning ifoda jihati bo'lib fonemalar xizmat qilgan.

Leksemaning mazmun jihati ancha murakkab bo'lib, uning asosini leksik ma'no tashkil qiladi. Leksik ma'noning uzvlariga ideografik semalar deyiladi. Leksik ma'noning tarkibida turkumlik semasi ham qatnashadi. Leksik ma'noni qurshab turuvchi betaraf, ijobiy yoki salbiy baho semasi ham mavjud bo'ladi va boshqalar. Agar leksema bir leksik ma'noli bo'lsa, yuqorida ta'kidlangan murakkab mazmun jihati leksemaga xos bo'ladi, agar leksema ko'p ma'noli bo'lsa, uning har bir leksik ma'nosiga xos bo'ladi. Ana shunday mazmun jihatiga ega har bir leksik ma'noni o'zicha mustaqil til birligi deb qarash, semema termini bilan asli shunday til birligini nomlash to'g'ri. Chunki ko'p ma'noli leksemaning leksik ma'nolari, yuqorida ta'kidlangan xususiyatlardan tashqari, leksema yasashda ham, uslubiy birkirilishda ham, hatto grammatik tabiatida ham o'zaro farqlanadi. Xullas, leksema bir leksik ma'noli bo'lsa (monosemem bo'lsa), u bitta til birligiga teng; agar ko'p ma'noli bo'lsa (polisemem bo'lsa), har bir leksik ma'noni (sememani) alohida til birligiga teng deb qarash to'g'ri.

Leksemalarning ifoda va mazmun rejaları orasidagi munosabat antonim, sinonim, omonim, paronim deb nomlanuvchi leksik mikrosistemalarni belgilashda ham asosga olinadi¹.

VI. Ikkinchi til birligi – morfema. Tub morfemada uning ifoda jihati bo'lib fonema xizmat qiladi (-la, -n kabi); hosila morfemada esa uni tarkib toptiruvchi til birliklari, odatda ikki morfema xizmat qiladi (-la, + -n = -lan kabi). Morfemaning mazmun jihati leksemaning mazmun jihatidan soddaroq: faqat signifikativ vazifa bajaradi: grammatik ma'no bildiradi.

Ko'rinadiki, leksema bilan morfemani tenglashtirish, birlashtirish mumkin emas. Tub leksema bilan tub morfema orasidagi o'xshashlik har ikkisida ifoda jihati bo'lib fonema xizmat qilishida, har ikkisida ma'lum bir fonema(lar)ga ma'lum bir mazmunni birkirish orqali til birligi yuzaga kelishida namoyon bo'ladi. Til birligi uchun muhim jihat – mazmun jihati nuqtayi nazaridan leksema bilan morfema keskin farq qiladi. Bu ikki birlik til qurilishining boshqa-boshqa bosqichlariga mansub ekanligi ham ularning ayrim-ayrim birliklar ekanini tasdiqlaydi.

Leksemada bo'lganidek, morfemaning ifoda jihati bo'lib keluvchi fonema o'z aynanligini doim saqlayvermaydi, turli tovush o'zgarishlariga uchraydi. Morfemalarda bunday tovush o'zgarishlari leksemalardagidan ko'ra ko'p. Masalan, hozirgi o'zbek tilida jo'nalish kelishigining ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiluvchi -ga morfemasi tarkibidagi g fonemasi o'zidan oldin kelgan fonema ta'siri bilan o'zgarib, boshqa tovushga (jarangsiz eshiga) almashadi: uyga, lekin ishka (Imlo qoidasiga binoan asliga ko'ra ishga yoziladi). Fonetik

nuqtayi nazardan bu yerda jaragsizlanishdan iborat assimilyasiya voqye bo'ladi, fonematik nuqtayi nazardan fonemaning bir (asosiy) ko'rinishi ikkilamchi ko'rinishiga almashayotir. Fonemaning ana shunday allofonemalari bu yerda morfema tarkibida voqye bo'lmoqda. Aniqrog'i, bu yerda ham allofonemalar shu tildagi tovush o'zgarishlari qoidalariga binoan til birligiga, bu yerda – morfemaga bog'liq holda yuzaga keladi.

Yuqoridagicha tovush o'zgarishlari odatda talaffuz qulayligiga erishish uchun yuz beradi. Buni mana bu murakkabroq tovush o'zgarishida ham ko'ramiz: barg- leksemasiga -ga morfemasining qo'shilishi tabiiy, lekin bargga yozamiz-u, barkka talaffuz qilamiz. Demak, leksema oxiridagi g fonemasini va morfema boshlanishidagi g fonemasini yonma-yon o'zicha talaffuz qilish qiyin, shunga ko'ra ular ayni bir vaqtda k tovushiga almashtirib talaffuz qilinadi, natijada g fonemasining k allofonemasi, barg leksemasining bark- alloleksemasi, -ga morfemasining -ka allomorfemasi namoyon bo'ladi.

Bu yerda keltirilgan ishga – ishka, bargga – barkka misollari ikki til birligidan – leksema bilan morfemadan tarkib topgan. Shu tur misollar asosida leksema bilan morfemaning yana bir farqli tomonini ko'rsatish mumkin. Ishga (ishka) misoli ot turkumiga mansub, shunga ko'ra uning tarkibida son ma'nosini ifodalovchi qism ham qatnashadi, buni ishlarga misoli bilan qiyoslash ochiq ko'rsatadi: ishga (ishka) misolida «birlik» ma'nosi bildiriladi-yu, lekin bu mazmun jihati birkiriladigan tovush ifoda jihati yo'q. Ana shunday zidlanishda (bu yerda «ko'plik» - «birlik» zidlanishida) ifoda jihati nolga teng morfema qatnashayotgani ta'kidlanadi. Demak, morfemaning ifoda jihati nolga teng bo'lishi mumkin, leksemada esa bunday holat kuzatilmaydi.

VII. Ishga (ishka), bargga (barkka) kabi misollar asli leksema bilan morfemadan tuziladigan til birligiga teng. Bunday birliklar so'z termini bilan atab kelindi, hozir esa bular leksemaning (ko'pchilik manbalarda so'zning deyiladi) ma'lum grammatik shaklga kirishi deb qaralib, oldinroq so'zshakl (slovoforma) deb, eng oxiri leksemashakl (leksemaforma) deb nomlana boshladi.

Til birligi deb leksemashaklni tuzish modeliga (qolipiga) aytiladi. Miyaning til xotira markazida ana shunday modellarning ramzi mavjud va u leksemashaklning lisoniy birlik holatiga teng; ushbu ramzlarning (modellarning) leksema va morfema bilan to'ldirilgan holati esa nutqiy birlik deyiladi.

Leksemaning (sememaning) mazmun jihatida, ideografik semalardan tashqari, turkumlik semasi ham mavjud bo'lishini aytgan edik. Leksemaga qanday morfemalarning qaysi tartibda qo'shilishi avvalo ana shu turkumlik semasiga binoan voqye bo'ladi.

X u l o s a

Xulosa o'rinda shuni aytishimiz mumkinki, lisonda bor imkoniyatlar-gina nutqda voqelanadi, lisonning imkoniyatlari boy bo'lib, nutqda uning ma'lum bir qismgin a namoyon bo'ladi deyishdan lison go'yo azaliy, tug'ma, mukammal degan fikr tushuniladi.

Vaholanki hali tili chiqmagan go'dakning miyasidagi til xotirasi qismida hech qanday ramz b o'lmaydi; go'dak nutqni egallay boshlaganidan keyingina miyasida ramzlar paydo bo'ladi. Demak, lison azaliy (zot) emas, balki nutq asosida shakllanadigan, to'ldiriladigan boylik. Tilning taraqqiyoti nutq yordamida voqye bo'ladi. Har qanday yangilik, masalan, yangi leksema yasash, boshqa tildan leksema olish avvalo nutqda voqye bo'ladi, bu yangilik til taraqqiyoti q onunlariga zid bo'lmasa lisonda ramz sifatida muhrlanadi, ana shundan keyin lisondagi bu ramzdan nusxa olib nutq hosil qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Искандарова Ш. Тилшунослик назарияси.- Фарғона, 2003.
2. Hojiev A. O'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari // O'zbek tili va adabiyoti,

- 2005 - yil 2-son, 2006 yil 3-son.
3. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - T., 2005.
 4. Nurmonov A. Lisoniy belgi haqida. - T., 1992.
 5. Neʼmatov X., Bozorov O. Tил va nutq. T., 1993.
 6. Раҳматуллаев Ш. Тил қурилишининг асосий бирликлари . - Тошкент. “Университет”, 2002.
 7. Sayfullayeva R., Qurbonova M., Mengliyev B., Boqiyev G. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent, 2005.